Noni halol*

Burungi o‘tgan zamonda bir katta boy bor ekan. Uning juda katta boyligi bo‘lib, bitta-yu bitta o‘g‘li bo‘lgan ekan. Bola yoshligidan erka va arzanda bo‘lib o‘sibdi. Kunlardan bir kuni boy o‘lib, mol-u dunyosi shu o‘g‘liga qolibdi. Boyvachcha otasi o‘lgandan keyin oshnalari va ulfatlari bilan har kuni ziyofat ustiga ziyofat, bazm ustiga bazm qurib, bor boyligini sarflab bo‘libdi. Otasidan qolgan boylik batamom sarf bo‘lib tugagach, yor-u jo‘ralari ham kelmay qo‘yibdi. Oshnalarinikiga borsa, boyvachchaning yuziga ham qarashmabdi. Boyvachcha o‘z-o‘zidan nihoyatda xafa bo‘libdi, afsus-nadomatlar chekibdi. Kunlardan bir kuni nima qilishini bilmay onasidan maslahat so‘rabdi. Onasi:

– Ey bolam, mana, otangdan qolgan boylik senga vafo qilmadi, do‘st-birodarlaring ham bizdan yuz o‘girdi. Sen o‘zing esa mehnat qilmading, mehnatdan qochding. Oxir-oqibatda mana shu bo‘ldi. Endi, bolam, el aro chiqib, bir noni halol kishiga sidqidildan mehnat qilib, halol non topsang, shunda turmushing but, o‘zing baxtli bo‘larsan, – debdi.

Shundan keyin yigit onasining so‘zini olib, bir chanoch non bilan qo‘liga bir ketmon olib, «hayt» deb noni halol kishiga xizmat qilish uchun jo‘nab ketibdi. Yigit yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir qishloqda bir dehqonnikiga boribdi. Dehqonga salom beribdi. Keyin:

– Bobo, men noni halol kishiga xizmat qilaman, deb uzoq yerdan keldim, sizning noningizni halol deb eshitdim. Meni xizmatga olsangiz, – debdi.

Yoshi oltmishdan oshgan, soch-soqoli oppoq oqargan dehqon bobo bu gapni eshitib yigitni juda ham izzat-u hurmat qilib, unga ziyofatlar beribdi. Ziyofat ustida:

– O‘g‘lim, men ham nonim halol deb yurgan edim. Lekin mening nonim ham biroz shubhalik bo‘ldi. Chunki men qo‘sh qo‘shganimda mening yerimga yaqin joyda bir dehqonning yeri ham bor edi. Ho‘kizimiz shuning bug‘doyidan bir tishlam yeb qo‘ygan. Men u dehqonni hali rozi qila olganimcha yo‘q. Shuning uchun nonimning halolligiga ko‘nglim to‘lmaydi. Narigi qishloqqa o‘tsangiz, mening Eraliboy degan akam bor. Ana shu akamning nonini halol desa bo‘ladi. Shu akamnikiga boring, – deb javob berib yuboribdi. Yigit ertalabgacha dehqon bobonikida mehmon bo‘lib, keyin jo‘nab ketibdi.

Yigit bora-bora Eraliboynikini so‘rab borsa, oldidan bir ko‘kala soqolli kishi chiqibdi. U kishidan:

– Erali boboning uyi qaysi? – deb so‘rabdi. Shunda u:

– Mana, bolam, men bo‘laman, – debdi. Erali bobo yetmish yoshga yaqinlashib qolgan chol ekan. Lekin hali ukasidan ancha tetik, soqoli ham uncha oqarmagan ekan. Yigit:

– Bobo, men non talab bo‘laman, kimning noni halol bo‘lsa, shunga xizmat qilaman, – debdi. Shunda Erali bobo:

– E bolam, mening nonim halol edi, yaqinda halolligi ozroq shubhali bo‘ldi, chunki mening yerimga bir qo‘shnimning

*Sehrli ertaklar. T.: «Yangi asr avlodi», 2010. 214–221-betlar.

bir dona bug‘doyi tushib, shu bug‘doy voyaga yetib, bosh tortib, boshi pishdi. Men shu bir tup bug‘doyning donini egasiga olib borib berdim-u, lekin somonini olib borib bera olmadim. Shuning uchun men o‘z nonimni halol deb ayta olmayman, – debdi. Bola nima qilishini, nima deb javob berishini bilmay turgan ekan, Erali boboning o‘zi:

– Narigi qishloqda mening Sheraliboy degan akam bor. Shu kishining noni halol bo‘lsa, ajab emas, – debdi. Yigit bu yerda ham bir kecha yotib, juda izzat-u hurmat ko‘ribdi. Erali dehqonga qoyil qolib, rahmatlar aytib, jo‘nab ketibdi. Yigit yo‘lga tushib, kech kirgan paytda Sheraliboy bobo yashaydigan qishloqqa yetib boribdi va uning manzilini so‘roqlabdi. Bundan xabar topgan Sheraliboy yigitning oldiga chiqib, uni yaxshi qabul qilibdi. Shunda yigit:

– Bobo, men non talab bo‘laman, sizning noningiz halol deb eshitib, huzuringizga uzoq joydan keldim, – debdi. Sheraliboy yetmishdan oshib, saksonga yaqinlashgan ekan, lekin hali o‘zi baquvvat, qaddi tik, soqoli qop-qora ekan. Buni ko‘rib yigit hayron bo‘lib qolibdi va noni halol bo‘lsa shu dehqonning noni halol bo‘lar, deb ichida o‘ylabdi. Sheraliboy:

– Bolam, men haqiqatan ham halol mehnat qilib, peshona teri to‘kib non yeb kelayotirman. Lekin men ham halol mehnat qiladigan, to‘g‘riso‘z kishiga non beraman, – debdi. Shunday qilib, yigit



Sheraliboynikida bir yil bir tanga pulga ishlashga rozi bo‘libdi. Yigit ham yolg‘on gapirmabdi, halol mehnat qilibdi. Oradan bir yil vaqt o‘tibdi. Kunlardan bir kuni yigit bir joyni tekislayman deb bir ketmon qo‘ymoqchi bo‘lgan ekan, bobo chopib borib ketmonini tortib olibdi-da:

– Bolam, mana, bir tangaga bir yil halol xizmat qilding. Endi bu ketmonni ursang, menga sening haqing ketadi, – debdi. Sherali bobo shunday deb yigitga bir tanga berib, haqiga duo qilib, jo‘natib yuboribdi. Yigit bobo bilan xayrlashib, dimog‘i chog‘ bo‘lib yo‘lga chiqibdi.

Yo‘lda juda katta karvon qirq qator norga har xil qimmatbaho zeb-ziynat, kiyim-kechak ortib borayotgan ekan. Yigit karvondagilardan: «Qani, karvon bobolar, sizlarga yo‘l bo‘lsin», – deb so‘rabdi. Karvondagilar shahri Zilolga borayotganligini aytibdi. Yigit:

– Men ham shahri Ziloldan bo‘laman. U yerda mening onam va xotinim bor. Sizlardan iltimos, men bozor qilib, onamga va xotinimga kiyim-kechak, biroz meva-cheva olib berib yuborsam, olib borib berasizlarmi? – debdi. Karvondagilar rozi bo‘lishgach, yigit haligi tangasiga bir-ikki chorak meva bilan bir qancha kiyim-kechak olib beribdi. O‘zi yo‘lda davom etibdi. Gapni karvondan eshiting. Karvon yo‘l yurib, yo‘l yursayam oz emas, mo‘l yurib, bir joyga borganda oldidan podshoning ikkita chopari chiqib qolibdi. Choparlar:

– Ey karvon ahli, bizning mushkulimiz juda ham og‘ir bo‘lib qoldi. Podshoning qizi og‘ir kasal, uni tabiblar ko‘rib, anor degan meva dardiga shifo bo‘ladi, shuni topib, ezib, suvini ichiringlar, debdi. Bizning mamlakatda anor degan meva bo‘lmaydi. Sizlarda anor degan meva yo‘qmi? – debdi.

Karvonboshi:

– Bizlarda anor degan meva bor-u, lekin omonat-da. Bir yigitniki, qanday qilib omonatga xiyonat qilib undan sizlarga beramiz? – debdi.

– Bo‘lmasa, – debdi choparlar, – bizlar sizlar bilan birga borib, yigitning oilasini rozi qilib, anoridan olib kelamiz, – deb karvon bilan birga yo‘lga tushibdi. Karvonboshi anor, kiyim-kechakni yigitning oilasiga olib borib beribdi. Haligi birga borganlar to‘rt dona anor so‘rabdi. Yigitning xotini choparlarni izzat-u hurmat bilan qarshi olib, ulardan bir tanga ham pul olmay, podshoning qiziga bir nechta anor sovg‘a qilibdi. Choparlarning nihoyatda vaqti chog‘ bo‘lib, podshoga borib voqeani aytibdilar. Podsho xursand bo‘lib, ularga sarpolar beribdi. Podshoning qizi bir dona anorni yeb, dardidan forig‘ bo‘lib, tuzalib ketibdi. Bundan xursand bo‘lgan shoh va anordan shifo topgan malika choparlarni chaqirib, har biri bir la’lidan tillani yigitning oilasiga sovg‘a qilib jo‘natibdi. Bir qancha qimmatbaho buyumlar, zeb-u ziynatlar, shohona liboslarni ham sovg‘a qilishibdi.

Yigitning oilasi bu sovg‘alardan rosa xursand bo‘lishibdi. Yigitning xotini juda ajoyib bir qasr qurdiribdi va barchalari qasrda yashayveribdi. Yigit ketgach, xotinining ko‘zi yorigan ekan. Chaqaloq o‘sib-ulg‘ayib, yetti-sakkiz yoshga to‘lib qolibdi.

Endi gapni yigitdan eshiting.

Yigit karvondan ajralgandan keyin bir bog‘bonnikida besh yil halol mehnat qilibdi. Uning mehnatidan bog‘bon ham nihoyatda xursand bo‘libdi. Yigit bog‘bondan gul ekish, parvarishlash, payvandlash usullarini, tokka qarash, olma, anor, nokni parvarishlash singari ishlarni juda mukammal o‘rganib olibdi. Bog‘bon bilan ikkalasi juda inoqlashib, xuddi ota-boladay bo‘lib ketishibdi. Har ikkalasi ham bog‘da o‘zlari parvarishlagan gullardan saralab terib, bozorga

chiqarib sota boshlabdi. Yigit bog‘lab chiqargan gulga podshoh, beklar va vazirlarning qizlari ishqiboz bo‘lib, ikki-uch baravar ortiq pul to‘labdilar va undan yigit bilan bog‘bon nihoyatda boy bo‘lib ketibdi. Kunlardan bir kuni yigit bog‘bon otasidan o‘z yurti, shahri Zilolga jo‘namoqchi bo‘lib ruxsat so‘rabdi.

Bog‘bon yigitga ming tanga berib:

– Bozordan bir yaxshi uchqur ot olib keling, minib ketasiz, – debdi. Yigit ming tangani olib bozorga borsa, mo‘ysafid chol:

– Ho‘v yaxshilar, bir nasihatim bor. Ming tanga berganga sotaman, – deb yurgan ekan. Yigit:

– Bobo, mana sizga ming tanga, – deb ming tangani sanab beribdi. Shunda bobo: «Bolam, achchig‘ing kelsa ichingga yut», – debdi. «Bo‘ldimi?» – debdi bola. «Nasihatim shu», – debdi bobo. Yigit nasihatni ming tangaga sotib olib, bog‘bon otasinikiga quruq qaytib boribdi. Bog‘bon ertasiga yana ming tanga berib, bozorga jo‘natibdi. Yigit bir ot olaman deb bozorga borsa, yana haligi mo‘ysafid: «Ho‘v yaxshilar, bir nasihatim bor, ming tanga berganga aytaman», – deb yurgan emish. Bola:

– Bobo, mana ming tanga, – deb tangani sanab beribdi. Bobo:

– Bolam, ajal yetmay chirkay o‘lmas, – debdi.

– Bobo, nasihatingiz shumi? – debdi yigit. Bobo: «Shu», – debdi. Yigit yana bozordan quruq qaytibdi. Bog‘bon unga



hech nima demay, ertasiga yana ming tanga sanab berib, bozorga jo‘natibdi.

Yigit bozorga borsa yana shu chol: «Ho‘v yaxshilar, bir nasihatim bor, kimda kim ming tanga bersa, aytaman», – deb yurgan emish. Yigit:

– Bobo, mana ming tanga, nasihatingizni ayting, – debdi. Bobo:

– Har kimning sevgani o‘ziga yaxshi, – debdi. Bu nasihatni ham yigit ming tangaga olib, keyin o‘ziga o‘zi: «Kel, endi yana bog‘bon otamga jabr qilmayin», – deb yayov yo‘lga chiqibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursayam oz emas, mo‘l yurib, bora-bora karvonga yo‘liqibdi. Karvondan:

– Yo‘l bo‘lsin? – deb so‘ragan ekan, karvonboshi:

– Alay bo‘lsin, shahri Zilol boramiz, – debdi. Yigit: «Shahri Zilol borsangizlar, meni ham hamroh etib ola ketinglar», – debdi. Karvonboshi rozi bo‘libdi. Yigit karvonga qo‘shilib yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bora-bora cho‘li biyobonga chiqib ketibdi. Cho‘li biyobonda bir quduq bor ekan. Karvon chanqab, horib shu quduqqa borib, quduqqa qovg‘asini tashlabdi, hech suv kelmabdi. Yana tashlabdi, quduqdan suv chiqmabdi.

Shundan keyin birin-ketin to‘rt tuyakashni quduqqa tashlagan ekan, ulardan bittasi ham qaytib chiqmabdi. Keyin karvonboshi yigitga:

– Qani, yigit, sen kir. Agar suv bo‘lmasa, bitta qolmay qirilib ketamiz, – debdi. Yigit o‘ylab-o‘ylab, «Ajal yetmay chirkay o‘lmas, kel-ey, ajalim yetsa shu quduqning ichida o‘larman, ajalim yetmasa, qaytib o‘lmasdan chiqarman», – deb quduqqa qovg‘a bilan tushibdi. Quduqning tagida ikkita bahaybat dev bemalol gaplashib o‘tirgan emish. Birovi bir parini, birovi esa bir toshbaqani quchoqlab o‘tirgan emish. Yigit quduqqa tushgach, devlardan biri:

– Qani, ey odamzod, ayt-chi, bu yaxshimi, u yaxshimi, – deb so‘rabdi. Yigit o‘ylab turib, «Bobom, har kimning sevgani o‘ziga yaxshi», degan edi, shuni aytaman», – debdi.

– Ey barzangilar, har kimning sevgani o‘ziga yaxshi-da, – debdi. Shunda devlar:

– Suvdan qancha kerak bo‘lsa, olaver, – debdi. Yigit juda ko‘p suv tortib, barchani o‘limdan qutqarib qolibdi. Haligi to‘rt tuyachidan devlar: «Pari yaxshimi, toshbaqa yaxshimi?» – deb so‘raganda: «Albatta, toshbaqadan pari yaxshi», – deganligi uchun toshbaqani sevgan dev ularni o‘ldirgan ekan. Ularning o‘ligini ham chiqarib, shu joyga dafn etishibdi. Yigitning mehnati evaziga karvon ahlining har biri ustidagi buyum va yuki bilan bittadan tuya berishibdi. Yigitning tuyasi qirqta bo‘lib, bir karvon qilib, shahri Zilolga boribdi. Qarasa, hovlisining o‘rnida bir katta qasr bino bo‘libdi. «Vo ajabo», – deb hayron qolib, tuyalarini qo‘yib, ichkariga kirsa, xotini boshiga sham yoqib qo‘yib, kelishgan yigitcha bilan o‘tirgan emish.

Yigit jo‘nab ketayotganda befarzand ekan, xotinini begona odam bilan ko‘rib, ha, meni o‘lib ketdi, deb xotinim erga tegib olibdi-da, deb naq bo‘lmasa ikkovini ham chopib tashlamoqchi bo‘libdi. Keyin o‘ziga o‘zi: «Men «Achchig‘ing kelsa ichingga yut», degan nasihatni ming tangaga sotib olgan edim-ku. Kel, endi bu sohada ham achchig‘imni yutayinchi», – deb xotinining yoniga kelibdi. Xotini uni ko‘rib: «Voy, otasi, kelib qoldingizmi? Mana, o‘g‘lingiz Sherbadan ham sakkiz yoshga to‘ldi», – debdi.

Yigit halol gapga amal qilib, mehnat qilgani uchun xudbinlikka qo‘l urmabdi. Umrining oxirigacha halol mehnat bilan kun kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

